Abdullayev O‘ktamjon Ergashivich
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti dekani, dotsent
E-mail: uktamjona@gmail.com

TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK KOMPONENTLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10071565

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida pedagogning psixologik komponentlari haqida atroflicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi faoliyati, psixologik komponentlar, ta’lim jarayoni, xotira, diqqat.

Kirish

Respublikamizdagi ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish yo‘lida umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash muammolariini hal etish masalalarida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunday ishlar oliy o‘quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutahassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o‘rgangan holda emas, balki, ayni vaqtda, insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, muomlaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e’tibor berishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davr bo‘lajak o‘qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat ko‘nikma va malakalar bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash zarurligini taqoza etmoqda.

O‘qituvchining faoliyatida idrok etish jarayonidagi faoliyat dasturlarini sharhlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buni esa bilishning har bir bosqichi dastur kompleksiga kiritilgan holatida bajarish qulayroqdir.

Asosiy qism

Ma’lumki, ongning birinchi bosqichini diqqat tashkil etadi. Inson ongi bilan qabul qilinadigan ma’lumotlar (ichki va tashqi) ko‘p kanallidir. Ma’lumot turiga qarab, u yoki bu dastur qo‘llanadi. Dasturlarning birbiriga xalaqit bermasligi va xohlagan paytda butun tizimning harakatlanish dasturini o‘zgartirishni ta’minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda ichki va tashqi ma’lumotlarning eng muhimini ajratib olish va unga mos ravishda muayyan harakatni boshqalaridan ajratgan holatda bajarishni amalga oshirish lozim.

Diqqat mexanizimi shunday tuzilganki, u ma’lumotlarning muayyan qismini ajratib, unga mos dasturni kuchaytirish imkoniyatini yaratadi. Bu yerda amalga oshirilgan kuchaytirishning darajasi muhimdir. Kuchaytirish tizimining faolligi emotsional holatga, ya’ni hissiyot darajasiga bog‘liq.

Hissiyot sohasi kuchaytirish tizim qo‘zg‘atilishining asosiy vositasi hisoblansa ham, u yagona yo‘l emas. Ta’lim jarayonida nima, nega savollari hamda maqsad va o‘zini ifodalash kabi reflekslar orqali ikkinchi qo‘zg‘atish yo‘li ham mavjud. Odatda bunday ta’sir ko‘rsatishlar hissiyotga nisbatan turg‘unroq bo‘lib, bunday holat diqqatni uzoq muddat davomida yagona ob’ektga qaratishda zarur bo‘ladi. Umuman olganda, odam diqqatini nimalarga jalb etish mumkin?

N.M.Amosov ushbu savolga quyidagicha javob beradi:

“Odamning xotirasi bir necha tipdagi qoliplarga jalb etilishi mumkin”.

1. Ma’lumotni qabul qiluvchi turli kanallar. “tinglash”, “ko‘rish”, “uxlash”.

2. Tinglash yoki ko‘rish orqali idrok etilgan obrazlarni tashish.

3. Obrazlarning yuqori darajasi-kichik bir qismni emas yaxlit manzarani idrok etish. Masalan, bitta epizod yoki shaxs orqali filmlarni, ovozlar orqali esa operani eslaydi.

4. Harakatlanish dasturlari – mehnat haqidagi g‘oyalardan oddiy harakatlarni sinchkovlik bilan bajarishgacha.

5. O‘tmishdagi obrazlar – esdaliklar.

6. Kelajakni ko‘ra bilish – tasavvur, orzu.
7. Sezgi va emotsiyalar.
8. Ichki a’zolar orqali sezish.

Umumiy ko‘rinishda fikrlash turli modellarning ketma-ket kuchayishini tashkil etadi.

Bilish jarayoniga nisbatan aytish mumkinki, bu yerda diqqat barcha ko‘rsatilgan modellarga javob qilishi mumkin.

Demak, ongning birinchi bosqichda diqqatning ma’lumotni dastlabki qayta ishlash dasturlari ishga solinadi. Qayta ishlash esa keyingi faoliyatning yo‘nalishini belgilashga yordam beradi. Bu yerda qo‘shiladigan hissiyot va boshqa murakkab reflekslar odamning ma’lumotga nisbatan sub’ektiv munosabatni belgilaydi.

Bilish faoliyatni boshqarishda pedagog o‘quvchini shaxs sifatida diqqatini idrok etilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarga yo‘naltira olishi shart, chunki sezish, idrok etish, tasavvur qilish holatlari ushbu jarayonga ta’lluqlidir.

Sezgi organlari orqali idrok etish, birinchi navbatda, signallar tizimiga bog‘liq bo‘lib, tashqi muhitdan anglashiladigan hodisalarga (tashqi signallar) asoslanadi.

Bu yerda ikkinchi signal tizimi idrok etish va kuzatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi signal tizimi borliq bilan bevosita bog‘lanmagan bo‘lib, muloqot jarayonida amalga oshadi. Shuning uchun ham odamning har qanday narsani idrok etishi faqatgina uni ongdagi in’kosi emas, balki anglash, uni qandaydir so‘z yordamida ifodalash va muayyan guruhga kiritiladi. Sezish orqali idrok etishda birinchi va ikkinchi signal tizimlarining hamkorligi zaruriy ahamiyatga egadir.

Sezish, idrok etish va tasavvur etish hodisalarining ichki aloqasini hamda ob’ektiv borliqning qonuniyatlarini ochib bera olmaydi. Bilishning mazmuni esa tabiatning ob’ektiv qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Bu esa abstrakt (mavhum) fikrlash jarayonida amalga oshiriladi.

O‘quv materiallarini o‘zlashtirishda sezgi orqali idrok etish jarayonlarini maxsus guruhga ajratib, “sezish orqali idrok etish” dasturi deb nomlash mumkin. Ularga sezish, qabul qilish va tasavvo‘rni shakllantirish dasturlarini kiritish mumkin.

Insonning ongi diqqat va borliqni qabul qilish dasturi bilan cheklanmaydi. Navbatdagi bosqich ongning oliy darajasi – ijtimoiy ongning kompleks dasturiga ega. Qabul qilinadigan har qanday ma’lumot odamda uch yo‘nalish – tizimdagi reaktsiyaga (ta’lim jarayonida shakllangan mantiqiy sezgi, hamda ijtimoiy etika) ijtimoiy ta’sir etadi.

Ong tashqi va ichki dunyoning har qanday ob’ektini yuqorida keltirilgan uchta yo‘nalishda tahlil qiladi. Odatda mantiqiy yo‘nalish javob harakatlarning turli variantlarini taqozo etadi, ularning keraklisi esa sezish yordamida aniqlanadi, sezishga esa ijtimoiy etika va “o‘zim uchun”, “qarindoshim uchun” kabi instinktlar ta’sir ko‘rsatadi.

Jarayon quyidagicha kechadi. Qandaydir signalga odam mavjud harakatlar dasturi orqali javob beradi – bu mantiqiy yo‘nalish.

Shaxsiy hissiyotlar qandaydir o‘zgarishlar, tuzatishlar kiritiladigan sezgi yo‘nalishi bo‘lib, u tanlangan javob harakatiga shaxsiy munosabatni ifodalaydi. Bundan so‘ng qaytariladigan javobni odam o‘zi yashayotgan jamiyatda o‘rnatilgan me’yorlar nuqtai nazardan baholaydi. Ushbu me’yorlar sharaf, vijdon, adolat, ezgulik, yomonlik va boshqalardan iborat. Ana shunday uch tizimli qiyoslash natijasida javob – harakatining yagona bajarishga tayyorlangan varianti vujudga keladi.

Ongning oliy bosqichi uchun, yuqorida ko‘rsatilganidek, dasturlar kompleksi harkterlidir. Birinchi navbatda odamning bilish faoliyati uchun muhim dasturlardan biri iroda haqida to‘xtalamiz. Harakatning qandaydir varianti tanlanganidan so‘ng iroda faoliyatining mos dasturini ishga solish va uning bajarilishini nazorat qilishni ta’minlaydi. Uchraydigan to‘siqlarga qaramasdan iroda belgilangan dasturni oxirigacha bajarish imkoniyatini yaratadi.

Irodali harakatni, ya’ni qandaydir faoliyatni amalga oshirishda, birinchidan ichki va tashqi yoki har ikkalasi bir paytda

chiqadigan ta'sirlar paydo bo'ladi, ikkinchidan esa o'qitish jarayonida o'zlashtirilgan ayrim tushunchalar burch, vijdon kabi tushunchalar yuzaga keladi. Bularni hisobga olgan holda odam o'z xulqini boshqaradi, o'qish jarayonida esa bilish faoliyatini boshqaradi.

O'qitish faoliyatida ko'pincha o'tmishga qaytish, ya'ni o'zining hayotiy tajribasidan, avval o'zlashtirilgan yoki boshidan o'tgan hodisani eslash zarurati paydo bo'ladi. Bunday holatda eslash dasturi ishga solinadi. Turli sabablarga ko'ra, xotiraga murojaat qilinadi. Tashqaridan qabul qilingan savol yoki buyruq, umumiy tadqiqotni tarkibiy qismini bajarish ongda qandaydir o'tmishdagi hodisani g'ayri ixtiyoriy ravishda gavdalanishi eslash dasturiga murojaat qilishni taqazo etuvchi kuchli omillardan. Esga olingan detallar (model) vaqtincha muddat uchun idrok etiluvchi obrazga aylanadi. U turlicha namoyon bo'ladi. Birlamchi idrok etilgan holatiga nisbatan uning qandaydir yangi qirralari ham ko'rinishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ushbu modelning yangi qabul qilingan ma'lumotlar bilan aloqasi ham aniqlanadi. Lekin, eslash dasturini oxirigacha bajarish uchun ayrim holatlarda iroda dasturini ham ishga solish kerak bo'ladi.

Inson ongining markaziy dasturlaridan birini ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi tashkil etadi. Ma'lumotlarni ongda qayta ishlash ko'zlagan maqsadga ko'ra turli darajada amalga oshadi. Bu qabul qilingan axborotni idrok etish yoki materialni o'zlashtirish darajasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qitish faoliyatiga ma'lum bosqichda axborotni qayta ishlash dasturini qo'llash lozim.

Axborotni qayta ishlash muayyan sharoitlarga (materialining mazmuni, uning murakkablik darajasi va yangiligi, o'tmish bilan aloqa o'rnatish zarurligi darajasi, shaxsning individual xususiyatlari) bog'liq bo'lib, turli aqliy operatsiyalarni bajarishni taqozo etadi. Shubhasiz, ushbu ruhiy jarayonlar irodaning ishtirokisiz ham amalga oshirish mumkin, lekin ayrim holatlarda axborotni qayta ishlash faoliyatini ma'lum bosqichga yetkazish uchun iroda dasturini qo'yishi zarurati paydo bo'ladi.

O'qitish jarayonida tasavvur dasturi muhim bo'lib, dasturning eslash kodi tashqaridan olingan ko'rsatma savol yoki umumiy o'rganish dasturining qisman bajarish ehtiyoji yoki ongda tasodifan paydo bo'lgan kuzatuvchi model ta'sirida ishga solinishi mumkin. Tasavvur yordamida tizimdagi o'zgarishlar kuzatilishi mumkin, tashqi ta'sirning izchilligi va faraz qilingan natijalar, ya'ni o'zgaruvchan tizimning kelajakdagi holati taxmin qilinishi mumkin.

Tasavvur dasturining bajarishda ikki asosiy yo'nalish (variant) qo'llanishi mumkin.

Birinchisi, xotirada shunday yoki shunga o'xshagan tizimlar va ularning o'zgarishlari holatiga bog'liq. Bunda tasavvo'rning mohiyati tizim va ularda qachonlardir ro'y bergan o'zgarishlarni eslash va hozirgi sharoit bilan bog'liq o'zgarishlarni ko'ra bilish bilan ifodalanadi.

Ikkinchi holatda xotira tizimi o'zgarajak holatlar haqida ma'lumotga ega emas. Bunday holatda berilgan belgilar bo'yicha tizimning modeli yaratiladi; bu yerda hozirgacha ma'lum bo'lgan tizimlarning obrazlaridan foydalanib, ta'sir ko'rsatish dasturlari tuziladi. Bu tasavvur dasturining murakkabroq varianti hisoblanadi.

Fantaziya dasturi ham ana shu turga mansubdir. Tasavvur va fantaziya dasturlarini iroda yordamida yoki ma'lum sharoitlarda iroda kuchsiz harakatga keltirish mumkin.

Demak, odam ongi dasturlar majmuidan iborat bo'lib, ularning asosiylari: a) diqqat (idrok etilgan axborot oqlini va harakatlaninsh dasturlari kuchli dasturi); b) hissiyot orqali idrok etish; v) iroda; g) eslash; d) axborotni qayta ishlash; j) xayol; z) fantaziyalardan iborat.

Har bir dasturning vazifasi bor. Ularning o'qitish faoliyatidagi mohiyatini hisobga olib, fikrimizcha, uchta guruhga ajratish mumkin:

1. Tashkiliy faoliyatga taalluqli dastur.
2. Sezgi orqali idrok etishga taalluqli dastur.

3. Intelektual faoliyatga taalluqli dastur.

Tashkiliy faoliyat dasturiga quyidagilar kiradi:

1. Diqqat dasturi: a) diqqatni ko‘chirish; b)diqqatni kuchaytirish; v) ichki va tashqi axborot muhumligini tanlash.

2. Iroda dasturi.

3. Hissiyot orqali idrok etish dasturga quyidagilar mansub: a) sezish dasturi; b) qabul qilish dasturi; v) kuzatish dasturi.

4. Intellektual faoliyat dasturiga quyidagilar kiradi: a) esdaliklar dasturi; b) axborotni qayta ishlash dasturi; v) xayol dasturi; g) fantaziya dasturi; d) tasavvur shakllantirish dasturi.

O‘quv jarayonida tashkiliy faoliyat dasturi hissiyot orqali idrok etish va intellektual faoliyat dasturlarini o‘zaro bog‘langan holatda amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar. Barcha holatlarda o‘quv materiallarinini maqsadli o‘zlashtirish bir yoki bir necha tashkiliy faoliyat dasturlarini ishtirok etishini taqazo etadi.

Bundan kelib chiqqan holatda pedagog va o‘quvchi tasarrufida bo‘lgan bilish faoliyatini boshqarish omillari qatoriga tashkiliy faoliyat dasturlari deb nomlangan dasturlarni kiritilishi lozim.

Demak, o‘quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish uchun diqqat va iroda yaxshi rivojlangan bo‘lishi lozim. Ushbu omillarni o‘quv jarayonida boshqarishni amalga oshirishda pedagog rivojlantirish va qo‘llash kerak.

N.D.Levitov talqinida o‘zlashtirishning faoliyat turlarini o‘zlashtirishning psixologik komponentlari bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. U pedagogik jarayonning zvenolari (bo‘g‘inlari) asosida o‘zlashtirishning quyidagi psixologik komponentlarini ajratadi. Bular:

O‘quvchining o‘qishga ongli munosabati. Bunday munosabat o‘quvchining qiyinchiliklarni bartaraf etishga iroda kuchini sarflashga ajratadi.

Material bilan bevosita, hissiy tanishish jarayonlari: sezish, idrok etish, kuzatish.

Fikrlash.

Xotira tasavvuri va tasavvur.

Ko‘rsatilgan to‘rt guruhni N.D.Levitov ular nisbiyligini va o‘zaro aloqadorligini ta’kidlaydi va keyinroq o‘quv materialini o‘zlashtirishni hissiy jarayonlar qatoriga sezish, idrok etish va tasavvo‘rni qo‘shadi. Bunday holatni quyidagicha izohlash mumkin: odam uchun bilish jarayonida tasavvur qilish ikki bosqichda muhim, ya’ni uning shakllanish bosqichi va qo‘llanish bosqichida. Mazkur tadqiqotda ham ularni guruhlar dasturiga bo‘lish ana shu yo‘nalishda amalga oshirilgan. N.D.Levitov tasnifidagi fikrlash, xotira tasavvuri va xayol bizning talqinimizga ko‘ra intellektual faoliyat dasturi guruhiga kiritishi mumkin.

Hissiy bilish va intellektual faoliyat dasturlari guruhida ikki yo‘nalish o‘rtasida farqli fikrlar kuzatilmaydi. Farqlanish tashkiliy faoliyat dasturida ko‘zga tashlanadi. Ta’kidlash lozimki, o‘qishga ongli munosabat komponenti birinchi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi faol pozitsiyasi sifatida xulqning ichki modeliga taalluqlidir.

Demak, tashkiliy faoliyat guruh dasturlarining elementlaridan pedagogning o‘qitish faoliyatida o‘quv – bilish faoliyatini tashkil etishning tayanch nuqtasi sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilarda bunday sifatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xulosa

Yuqorida ta’kidlaganidek, va boshqa tadqitotlarda isbotlanganidek, pedagogning o‘quv faoliyatini hal qiluvchi turiga asoslangan yondashuv o‘qitish faoliyatini o‘quv – bilish faoliyatni tashkil etishning tizimi sifatida talqin etish imkoniyatini yaratadi. Ta’limni amalga oshirishning asosi sifatida pedagogning o‘qitish faoliyati ta’limga yondashish uchun belgilaydi. Yuqoridagi fikrlar asosida ta’limni o‘ziga xos xususiyatlarga ega funktsional didaktik tizim sifatida e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига

киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутк Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Узбекистан» НМИУ, 2016. - 56 б.

2. Азамов А. Педагогик маҳорат. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: “Фан”, 2015 й.

3. Азизхўжаева Н.Н. «Педагогик технология ва педагогик маҳорат». – Т.: ТДПУ, 2003 й.

4. Амосов Н.М. «Эксперимент по преодолению старости» АСТ: Донецк: «Сталкерс», 2003—123 с. (Рецепты здоровья).

5. Асқарова Ў., Нишонов М., Ҳайитбоев М. Педагогика. Дарслик. – Т.: “Талқин”, 2015 й.

6. Маркова А.К. Психология профессионализма / А.К Маркова-М.:Просвещение,1996.

Абдуллаев Октамжон Эргашивич
Наманганский государственный педагогический институт
Декан педагогического факультета, доцент
E-mail: uktamjona@gmail.com

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ ПЕДАГОГА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье даются подробные комментарии о психологических компонентах деятельности педагога в процессе обучения студентов.

Ключевые слова: деятельность учителя, психологические компоненты, учебный процесс, память, внимание.

Abdullayev Oktamjon Ergashivich
Namangan State Pedagogical Institute
Dean of the Faculty of Pedagogy, associate professor
E-mail: uktamjona@gmail.com

PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF THE PEDAGOGUE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. In this article, detailed comments are made about the psychological components of the pedagogue in the process of teaching students.

Key words: teacher activity, psychological components, educational process, memory, attention.